

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

NAZAROV NAZIRJON NARZILLOYEVICH

**MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI
(Navoiy viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Nazarov Nazirjon Narzilloyevich

Mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari
(Navoiy viloyati misolida)..... 3

Назаров Назиржон Нарзиллоевич

Приоритетные направления стратегии устойчивого развития регионов
(на примере Навоийской области)..... 27

Nazarov Nazirjon Narzilloyevich

Priorities of the strategy for sustainable development of regions (on the
example of Navoi region)..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

NAZAROV NAZIRJON NARZILLOYEVICH

**MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI
(Navoiy viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4211 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch til (o'zbek, rus, ingliz (rezyume))da Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz)da va "Ziyonet" axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sodiqov Avazbek Madaminovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Abdurashid Madjitovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bekmurodov Nurali Xolmatovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy
tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 10-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, "Universitet" ko'chasi, 4-uy, tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24 faks: (99871) 246-90-80, e-mail: rector@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, "Universitet" ko'chasi, 4-uy, tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24; faks: (99871) 246-90-80, e-mail: rector@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 21-dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 21-dekabrda 43-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.P. Abulkasimov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Q.Q. Mambetjanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kengash iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.V. Vahabov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global iqlim o'zgarishi, ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy nomutanosibliklarning kuchayishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari asosida mamlakatlar milliy va hududiy strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. BMT hisob-kitoblariga ko'ra, "2023-yilda jahonda barqaror rivojlanish dinamikasi 2,7 foizni, mamlakatlardagi iqtisodiy muammolar va global geosiyosiy vaziyat kabi omillar ta'sirida tendensiyasining o'zgarishi 2030-yilgacha o'rtacha 2-3 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, 3,6 milliard kishi iqlim o'zgarishidan sezilarli darajada aziyat chekayotgan hududlarda yashamoqda, 2 milliard odam esa, toza ichimlik suvidan bahramand bo'la olmayapti hamda 600 million kishi sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuqumli xavfli kasalliklardan jabr ko'rmoqda"¹. Mazkur holat mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyalarining ustuvor yo'nalishlarini belgilashda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlar uyg'unligini ta'minlash va barqarorlik holatini "Q" (Quantitative and Qualitative Assessment) metodologiyasi asosida belgilashni taqozo etmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda davlat va mintaqalar rivojlanishini ta'minlash uchun strategik rejalashtirish usullaridan foydalanish yuqori samara berishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)ni amalga oshirishda global hamda milliy maqsadlarning hududiy darajada implementatsiya qilish zaruriyati asoslab berilgan. Biroq xorijiy mamlakatlar va respublika miqiyosida hududiy rivojlanish muammolari, barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini yaxlit, uzviy bog'liqlikda o'rganishga doir dissertatsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari etarli emas. Ularning aksariyati iqtisodiy rivojlanish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, hududiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik jihatlarini, ularning iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi uzviy bog'liqligi hamda o'zaro ta'sirlari yaxshi o'rganilmagan. Mintaqalar barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish metodologiyasi to'liq shakllanmagan.

O'zbekistonda "hududlarni kompleks rivojlantirish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 32 foizga yetkazish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida suvni ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqish miqdorini 10,5 foizga kamaytirish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish"² kabi masalalar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari sifatida tanlangan. Natijada "2023-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18,1 mln so'mga yetdi. Suv tejovchi texnologiyalarning joriy qilinishi

¹ Global economic growth in 2024 is projected to slow down to 2.4% — UN. January 4, 2024 [electronic resource] URL: <https://news.un.org/en/story/2024/01/1448302>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6600413>

natijasida 2 milliard kub metr suvni tejash imkoni yaratildi³”. Barqaror rivojlanishning maqsadli samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish va belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari doirasida chuqur izlanishlar olib borish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 18-yanvardagi PQ-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 21-fevraldagi PQ-83-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va mintaqalarni kompleks rivojlantirishga tegishli boshqa rasmiy hujjatlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari, ularning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash masalalari ko‘plab xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida o‘rganilgan. Jumladan, xorijlik olimlardan – R. Gogonea, X.Liang, K. Malli, M. Milenkovich, S.Z. Rustamovich, M. Szabo, K. Chapple⁴ va boshqalarning ishlarida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda mintaqaviy strategiyalarning samaradorligini oshirish, ekologik va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash, ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanishni uyg‘unlashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar o‘z aksini topgan.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari (<https://tools.sodapdf.com/document/4fd6470-8d98-44dd-9a41-4be60e91cc6a>)

⁴ R. Gogonea, A. Baltalunga, A. Nedelcu, D. Dumitrescu. Tourism Pressure at the Regional Level in the Context of Sustainable Development in Romania. Sustainability 698, (2020).; X. Liang, D. Si, X. Zhang. Regional Sustainable Development Analysis Based on Information Entropy-Sichuan Province as an Example. International Journal of Environmental Research and Public Health, (2021).; K. Mally. Regional differences in slovenia from the viewpoint of achieving europe’s sustainable development. *Acta geographica Slovenica*, (2), 31-46, (2021).; Marija Milenković, Ashok Vaseashta, Dejan Vasović. Strategic Planning of Regional Sustainable Development Using Factor Analysis Method. *Pol. J. Environ. Stud. Vol. 30, No. 2 (2021)*.; S.Z. Rustamovich. Specific Aspects of Implications of Foreign Investments on the Integration of the National Economy into the Global Economy. *International Journal of Research*, 6 (3), 2021. 451-458.; M. Szabó, M. Csete, T. Pálvölgyi. Resilient Regions from Sustainable Development Perspective. *European Journal of Sustainable Development*, 7(1) 395-411, (2018).; K. Chapple. Defining the Green Economy: A Primer on Green Economic Development // Berkeley: The Center for Community Innovation (CCI) at UC-Berkeley. - 2008. - P. 66.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan – T.V. Alferova, I.Buzko, Yu.A.Gajiyev, V.L. Kvint, L. Kuanova, I.A. Morozov, N.V. Paxomova, A.A.Urunov, A.A. Shalmuyev⁵larning tadqiqotlarida mintaqalarni barqaror rivojlantirishda innovatsion va investitsion strategiyalarni amalga oshirish, ekologik masalalar va barqaror rivojlanish tamoyillarini hududiy rejalashtirishda qo'llash, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun mintaqaviy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Mahalliy olimlar – T.M. Axmedov, A.V. Mamatqulov, Sh.X. Nazarov, O.O.Olimjonov, A.M. Qodirov, B.R. Ro'zmetov, A.M. Sodiqov, A.V. Vaxabov, S.S.Zokirov, F.T. Egamberdiyev, Sh.Sh. Shoxa'zamiy⁶ va boshqalar tomonidan mintaqalarni barqaror iqtisodiy rivojlantirishda mintaqaviy iqtisodiy siyosatni rivojlantirish, mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarining nazariy-metodologik jihatlarini o'rganilgan. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirish masalalari T.M. Axmedov, A.M. Sodiqov, Sh.X. Nazarov, S.Sh. Mirziyoyeva, B.B. Valiyev va

⁵ Алферова Т.В. Устойчивое развитие региона: подходы к отбору показателей оценки // Вестник Пермского университета Том 15. № 4 2020. С. 494; Iryna Buzko, Olena Vartanova, Iryna Trunina, and Inna Khovrak. Theoretical aspects of regional sustainable development in the EU and Ukraine SHS Web of Conferences 61, 01001 (2021) <https://doi.org/10.1051/shsconf/20196101001>; Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального экономического роста и развития // Экономика региона № 2/2019.; Kvint B.L. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti [Tekst]: daydjest. /VL.Kvint.-Toshkent:Tasvir, 2019.-20 b.; Laura Kuanova Assessment of the Sustainable Development of Regions: the Case of Kazakhstan/ PhD, Senior Lecturer, Finance and accounting Department, Higher School of Economics and Business, al-Farabi Kazakh National University, Almaty, Kazakhstan.; Морозов И.А. Экономические показатели устойчивого развития и оценка ситуации в северо-западных регионах России // Проблемы современной экономики. № 4 (24). [Электронный ресурс]. URL: <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=1683> (дата обращения: 28.11.2013); Pakhomova N.B., Rikhter K.K., Malyshev G.B. Inclusive sustainable development: priorities, indices, international experience, potential of coordination with reindustrialization model. Problemy sovremennoy ekonomiki [Problems of modern economics], 2023, no. 3(51), pp. 15-24.; Урунов А.А. Региональная экономика. Учебник и практикум ИНФРА-М, 2020 г. 366 стр.; Шалмуев А. А. Теоретико-методологические основы устойчиво развития региона. Инновационная деятельность в регионах. Инновации № 3 (90), 2006.;

⁶Ахмедов Т.М. Стратегия комплексного и устойчивого развития регионов Узбекистана. В кн.: Модернизация национальной экономики Узбекистана. – Т.: АН РУз, 2011. – С. 18-21.; Mamatkulov A.B. The role of free economic zones in attracting foreign direct investment through small business and private entrepreneurship in Uzbekistan // “Economic development and liberalization issues of implementation the five priority areas of Uzbekistan’s development strategy”. Tashkent, 2018.; Мирзиёева С.Ш. Методологические основы стратегирования социально-экономического развития Узбекистана: монография. – СПб.: ИПЦ СЗИУ РАНХиГС, 2020. – 184 с. – (Серия «Библиотека стратега»); Назаров Ш.Х. Эндогенные факторы конкурентоспособности региона и их эконометрическое тестирование. // Регион: Экономика и Социология, 2013. – С. 316-329; Олимжонов О.О. Вопросы повышения конкурентоспособности сельских районов. Агроэкономика, 2017, №1. –С. 7-12; Отабоев Ш.Х. Методические вопросы оценки эффективности деятельности местных органов власти. // Региональная экономика: теория и практика, №16, 2018. – С. 1415–1428; Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. Ташкент, Фан. 2002. -220 с.; Садыков А.М. Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация. Монография. – Ташкент: 2019. –536 с.; Vaxabov A.B. Jahonda yashil iqtisodiyot’ni rivojlantirish modellari va uni O‘zbekistonda amalga oshirish xususiyatlari: monografiya, / i.f.d., prof. A.B. Vaxabovning umumiy tahriri ostida –Toshkent: “Universitet”, 2020.; Valiev B.B. O‘zbekiston mintaqalarida investitsiya salohiyatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari. Avtoreferat. DSc. 2020.; Zokirov S.S. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishning institutsional jihatlarini // Стратегическое планирование - важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов: материалы Форума экономистов. -Т.: IFMR, 2019. -S 393-397.; Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутри региональном уровне // Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63.; Шохазамий Ш.Ш. Методологические основы и приоритеты стратегического развития рынка ценных бумаг в Узбекистане, Автореферат дисс... доктора. экон. наук. 2011.;

Sh.X.Otaboyevlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Biroq mamlakatimiz olimlarining mazkur soha rivojiga qo'shgan hissalarini inkor etmagan holda qayd etish kerakki, ularda iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, ekologik masalalar etarli darajada hisobga olinmagan.

Barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarda mintaqalarni kompleks rivojlantirishning uzoq maqsadli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda, barqaror rivojlanishni ta'minlashda iqtisodiy, ijtimoiy hamda atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratish, inson kapitalini rivojlantirish, o'sish nuqtalarini aniqlash, kelajakda mumkin bo'lgan tabiiy, ekologik, iqtisodiy xavf-xatarlar va tahdidlarni oldini olish masalalari nisbatan kam o'rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining F-1-101 "Globallashuv sharoitida mintaqalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligi o'sishiga metodologik yondashuvlar" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqalarni barqaror rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning nazariy asoslarini o'rganish va umumlashtirish;

barqaror mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holatini tahlil qilish, uning rivojlanish imkoniyatlari va mavjud muammolarini aniqlash;

mintaqa barqaror rivojlanishiga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarni aniqlash;

mintaqa uzoq muddatli barqaror rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

Navoiy viloyatini uzoq muddatli barqaror rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlari bo'yicha maqsadli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida Navoiy viloyati iqtisodiyoti olingan.

Tadqiqot predmeti mintaqaning barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik umumlashtirish, analiz va sintez, qiyosiy va omilli tahlil, SWOT tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Navoiy viloyatining olis cho'l hududlari, ya'ni Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlarini barqaror rivojlantirish hamda aholi turmush sharoitini yaxshilashni moliyalashtirish samaradorligini oshirishga «Navoiy kon-metallurgiya kombinati», xalqaro moliya institutlari, xorijiy donorlar, mahalliy sub'yektlar ajratgan mablag' va imtiyozli kreditlari asosida «Maxsus jamg'arma» tashkil etish hamda uni optimal taqsimlash orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Navoiy viloyati aholisi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga mintaqada qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot sub'yektlariga yer maydonlarini "bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida ajratib berish va sohada "Agregator" tizimini joriy etish orqali erishish taklifi asoslangan;

Navoiy viloyatida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlashga G'ozg'on shahri hududida marmar va granit toshlarni qazib olish, qayta ishlash, saqlash, tashish va sotishga ixtisoslashtirilgan "sanoat klasterlari"ni tashkil etish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Navoiy viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida viloyat YaHM o'sishining 2030-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mintaqada barqaror rivojlanish strategiyasining zarurati ilmiy asoslangan;

xorijiy tajribani o'rganish asosida mintaqani barqaror rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

viloyatning chekka hududlarida yashash sharoiti og'ir aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilayotgan "Maxsus jamg'arma" tuzilmasi ishlab chiqilgan;

mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda ekologik xavf solayotgan muammolarni oldini olishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Navoiy viloyatini barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish uchun uzoq muddatli davrga mo'ljallangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlar asosida maqsadli ko'rsatkichlarning prognoz parametrlari ishlab chiqilgan;

Navoiy viloyati aholisining barqaror yashash xavfsizligini ta'minlash omillari, mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning hududiy rivojlanishni amalga oshirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, ekspert baholash natijalariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi, Navoiy viloyati hokimligi hamda Navoiy viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining rasmiy va boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini shakllantirish, mintaqqa salohiyatini hisobga olgan holda mintaqaviy barqaror rivojlanish dasturlari samaradorligini oshirish, hududning tuman va shaharlari sanoat tarmoqlari innovatsion salohiyatini baholash va innovatsion omildan samarali

foydalanish istiqbollarini belgilashda hamda oliy ta'lim tizimida "Mintaqaviy iqtisodiyot", "O'zbekiston iqtisodiyoti" va "Barqaror rivojlanish strategiyasi" fanlaridan o'quv materiallarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Navoiy viloyatining barqaror rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Navoiy viloyatining olis cho'l hududlari, ya'ni, Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlarini barqaror rivojlantirish hamda aholi turmush sharoitini yaxshilashni moliyalashtirish samaradorligini oshirishga "Navoiy kon-metallurgiya kombinati", xalqaro moliya institutlari, xorijiy donorlar, mahalliy sub'yektlar ajratgan mablag' va imtiyozli kreditlari asosida "Maxsus jamg'arma" tashkil etish hamda uni optimal taqsimlash orqali erishish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-sentabrdagi PQ-3301-sonli "Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 5-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari kotibiyatining 2023-yil 27-noyabrdagi 03/18-20-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Navoiy viloyatining cho'l hududlaridagi yashash sharoiti og'ir aholi qatlamini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlikka jalb qilish imkoni yaratiladi;

Navoiy viloyati aholisi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga mintaqada qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot sub'yektlariga yer maydonlarini "bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida ajratib berish va sohaga "Agregator" tizimini joriy etish orqali erishish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PQ-52-son "2023-2024-yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi 2-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari kotibiyatining 2023-yil 27-noyabrdagi 03/18-20-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida joylarda suv resurslarini tejash va kooperatsiya usuli asosida yuqori daromad olishga erishiladi;

Navoiy viloyatida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlashga G'ozg'on shahri hududida marmar va granit toshlarni qazib olish, qayta ishlash, saqlash, tashish va sotishga ixtisoslashtirilgan "sanoat klasterlari"ni tashkil etish orqali erishish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-iyuldagi 611-sonli "2019-2021-yillarda Navoiy viloyatining G'ozg'on shahrini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 2-ilovasi 25-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari kotibiyatining 2023-yil 27-noyabrdagi 03/18-20-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga qo'llanilishi natijasida hududda mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan foydalanish chora-tadbirlari amalga oshirilgan, shu asosda ishlab chiqarish sohasida yangi ish o'rinlari yaratiladi;

Navoiy viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida viloyat YAHM o'sishining 2030-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-apreldagi 217-son "2022-2026-yillarda Navoiy viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining maqsadli parametrlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari kotibiyatining 2023-yil 27-noyabrda 03/18-20-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbol ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bir qator ilmiy anjumanlarda, jumladan, 13 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 141 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida hududlar barqaror rivojlanishining nazariy va metodologik asoslari, barqarorlik tamoyili, hududlar barqaror rivojlanish darajasini baholashning nazariy asoslari hamda mintaqalarni barqaror rivojlantirishning xorij tajribasi bo'yicha tadqiqot olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda barqarorlikning "Q" (Quantitative and Qualitative assessment) sifat va miqdoriy baholash metodologiyasi ilmiy tadqiqot ishlarida sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda hamda hududlarda barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishni baholashda keng qo'llanilmoqda (1- jadval).

1- jadval

Barqarorlikning “Q” metodologiyasi bo‘yicha tahlili⁷

Iqtisodiy barqarorlik	
Aylanma iqtisodiyot (Circular economy)	Qayta ishlanadigan mahsulotlardan sanoatda qo‘shimcha iqtisodiy foyda olishga erishish, ya’ni “Recycling products”ni ishlab chiqarishda (masalan, plastik va metal buyumlarni qayta ishlash) samaradorlikka erishish.
Yashil iqtisodiyot (Green economy)	Ekotizimni asrash barobarida iqtisodiy farovonlikka erishish maqsadida tovar va xizmatlardan unumli foydalanish (moliyaviy oqimlarni yo‘naltirish, tabiiy kapitalga investitsiyalar kiritish orqali moliyaviy natijalarga erishishni ta’minlash).
Bioiqtisodiyot (Bioeconomy)	Biotexnologiya va agroekologik usullar yordamida biomahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish natijasida iqtisodiy farovonlikni oshirish.
Ijtimoiy barqarorlik	
Aylanma iqtisodiyot (Circular economy)	Chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlashga mo‘ljallangan sanoat klasterlari orqali hududlarni rivojlantirish va bandlikni oshirish.
Yashil iqtisodiyot (Green economy)	Ekotizim menejmenti xarajatlari va foydalarini birgalikda, adolatli taqsimlash; ekoturizmni va biologik xilma-xillikka asoslangan boshqa bizneslarni rivojlantirish.
Bioiqtisodiyot (Bioeconomy)	Birlamchi ishlab chiqaruvchilar va biosanoat klasterlarini tashkillashtirish orqali hududiy rivojlanishga erishish.
Atrof-muhit barqarorligi	
Aylanma iqtisodiyot (Circular economy)	Ishlab chiqarish va iste’mol materiallari hajmining qisqartirish asosida resurslar va atrof-muhitga bog‘liqlikni kamaytirish.
Yashil iqtisodiyot (Green economy)	Tabiatni asrash, tiklash va tabiatga asoslangan yechimlar orqali tabiiy kapital va tegishli ekotizim xizmatlarini kengaytirish.
Bioiqtisodiyot (Bioeconomy)	Tabiiy resurslar, biotexnologiyalar va innovatsiyalardan samarali foydalanish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash.

Barqaror rivojlanishning uchta asosiy tamoyili dunyo miqyosida xalqaro va milliy siyosatning amaliy natijasi sifatida tan olinmoqda. Bular: aylanma iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot va bioiqtisodiyot hisoblanadi. Har bir tamoyilning barqaror rivojlanish komponentlari iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.

BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mamlakatlar va hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda hududlarning barqaror

⁷ Muallif ishlanmasi.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taminlashga qaratilgan faol mintaqaviy siyosat amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqida mintaqaviy siyosati nisbatan kam taraqqiy etgan hududlarga yordam ko'rsatish, unga a'zo mamlakatlar mintaqalari o'rtasida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish masalalariga ustuvorlik berilmoqda. Xitoy mamlakatining hududiy barqaror rivojlanishida esa tengsizlikni kamaytirish, qishloq ma'muriy hududlarida infrastrukturani rivojlantirish orqali erishishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Barqaror rivojlanish tabiat va jamiyat uchun inklyuziv va barqaror kelajakni yaratish bo'yicha kishilik jamiyatining birgalikdagi sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi. Unga uch asosiy element – iqtisodiy o'sish, ijtimoiy integratsiya va atrof-muhit muhofazasini muvofiqlashtirish natijasida erishiladi.

Ushbu elementlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, insonlar va, umuman, jamiyat farovonligi uchun juda muhimdir. Barcha hududlarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish barqaror rivojlanishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun barqaror, inklyuziv va teng huquqli iqtisodiy rivojlanishga erishish, barcha uchun keng imkoniyatlar yaratish, tengsizlikni kamaytirish, turmush darajasining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilash, adolatli ijtimoiy rivojlanish va integratsiyani rag'batlantirish, tabiiy resurslar va ekotizimlarni kompleks va barqaror boshqarishni ta'minlash talab etiladi. Bu borada dunyo hamjamiyatida barqaror rivojlanish modeli tan olingan. Bunga asosiy omil sifatida iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhitni asrash kiritilgan. Bu rivojlanish modeli uchta asosiy yo'nalishni muvozanatli rivojlantirishni talab qiladi. Ya'ni, resurslardan oqilona foydalanib, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va innovatsiyalarni rag'batlantirish; jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlab, ta'lim, sog'likni saqlash va bandlikni yaxshilash; tabiiy resurslardan unumli foydalanib, chiqindini kamaytirish va ekomuhitni muhofaza etish vazifalari nazarda tutiladi.

Mintaqalar barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ishlab chiqiladigan strategiyalar mintaqaning o'ziga xos iqtisodiyoti va ijtimoiy holatini inobatga olishi lozim. Bu qisman yoki vaqtinchalik barqarorlikni emas, balki davomiy barqaror rivojlanishga erishishni kafolatlashi kerak. Shunga ko'ra, hududlarni barqaror rivojlanish strategiyasini ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishda belgilab olingan tamoyillar va talablarni amalga oshirish, ichki va tashqi omillar ta'sirini puxta o'rganishga bog'liq.

Mintaqani barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirish jarayonida aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanadi. Ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish esa jamoat transportlaridan tortib ta'lim, sog'liqni saqlashga qaratilgan bo'lib, ular zamonaviy talablarga mos ravishda modernizatsiya qilinadi. Shu bilan birga, atrof-muhit muhofazasi borasidagi harakatlar orqali ekologik muvozanat saqlanadi va barqaror rivojlanishga asos bo'ladi. Taklif etilayotgan iqtisodiy va boshqaruv mexanizmi, yuqorida ta'kidlangan maqsadlarga erishishda muhim o'rin tutib, nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi,

balki resurslardan samarali foydalanish, tabiiy boyliklarni avaylab saqlash va kelajak avlodlarga sof va barqaror muhitni qoldirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval

Mintaqaning barqaror rivojlanish mexanizmi⁸

Iqtisodiyot	Ijtimoiy holat (turmush darajasi)	Ekologiya
Barqaror iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari; ishlab chiqarishning samaradorligi va yuqori ilmiy-texnik darajasi; yangi texnologik yechimlar va yangi innovatsion texnologiyalar; taklif etilayotgan resurstejamkor texnologiyalarni iqtisodiy mezonlar bo'yicha baholash.	Jamiyatda zarur iste'mol darajasini va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash mexanizmlari; ta'lim va ko'nikmalar bilan boyitilgan inson kapitalini ko'paytirish; ishlab chiqarish unumdorligi va xavfsizligining talab darajasini ta'minlash; ijtimoiy-adolatli mezonlar asosida baholash.	Biosferaning barqaror ishlashini amalga oshirish mexanizmlari; ekologik toza texnologiyalar va ilgari buzilgan ekotizimlarni tiklash; minimal ekologik ta'sirni ta'minlash; atrof-muhitga antropogen ta'sirni baholash.


Navoiy viloyatining barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar uyg'unligini ta'minlash asosiy maqsad qilib olingan. Iqtisodiy blokda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushini oshirish va tabiiy resurslarni qazib olish hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi balansni ta'minlash dolzarb masalalar sifatida qayd etilgan. Bu esa mintaqada texnologik innovatsiyalarni jadallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy sohada aholi turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu bilan birga, aholining hayot davomiyligini oshirish maqsadlariga erishiladi.

Ekologik blokda esa sanoat va energiya obyektlari uchun yangi ekologik standartlarni joriy etish, atrof-muhitni muhofaza qilishning samarali mexanizmlarini rivojlantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish salohiyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida ko'rsatilgan. Bu omillar mintaqaning ekologik barqarorligini saqlash bilan birga, aholi farovonligini oshirishga ham hissa qo'shadi.

Ushbu strategik yondashuv mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash bilan birga, ekologik muvozanatni saqlash orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishni kafolatlaydi (1-rasm).

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm. Navoiy viloyatini barqaror rivojlanish strategik maqsadlari⁹

Dissertatsiyaning “**Navoiy viloyatining barqaror rivojlanish holatini baholash**” deb nomlangan ikkinchi bobida mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi holati va muammolari aniqlangan, tabiiy-iqtisodiy salohiyati afzalliklari va viloyat, tuman va tarmoqlar darajasida qabul qilingan hukumat qarorlarida kompleks rivojlantirish dasturlari hamda mintaqalarning ijtimoiy va ekologik holati tahlil qilingan.

3-jadval

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

**Navoiy viloyatining respublika ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlanishida tutgan o‘rni (foizda)¹⁰**

Ko‘rsatkichlar	2017 yil	2023 yil	Respublikada tutgan o‘rni
Hududi	24,7	24,7	2
Aholi soni	2,9	2,9	13
Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)	4,6	7,7	3
YAHM aholi jon boshiga (mln so‘m)	15,4	77,1	1
Sanoat	8,8	15,5	3
Sanoat mahsulotlari aholi jon boshiga (mln so‘m)	14,5	95,4	1
Qishloq xo‘jaligi	4,4	4,5	11
Xizmatlar	2,6	2,5	12

Navoiy viloyati respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Viloyat respublika hududining 24,7 foizni, aholi sonining 2,9 foizini tashkil etgan holda, 2017-2023 yillarda respublika YAIMdagi ulushi 4,6 foizdan 7,7 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi bo‘yicha 8,8 foizdan 15,5 foizgacha ko‘tarildi. Aholi jon boshiga YAHM va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha respublikada 1-o‘rinni egallaydi(3-jadval).

Navoiy viloyatining YAHM tarkibida 2010-2023-yillar davomida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. (4-jadval).

4-jadval

Navoiy viloyati YAHM tarmoq tarkibining o‘zgarishi (foizda)¹¹

Yillar	Sanoat	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	Qurilish	Xizmatlar
2010	51	15	6,2	27,8
2015	51,8	16,8	6,1	25,3
2016	52,1	16,2	5,7	26,0
2017	53,4	18,5	5,3	22,8
2018	55,8	23,6	4,6	16,0
2019	66,5	16,5	4,2	12,8
2020	71,1	13,8	3,4	11,7
2021	69	15	3,7	12,3
2022	69,3	13,9	4,0	12,8
2023	70,4	13,9	3,5	12,2


Ayniqsa, viloyat iqtisodiyotining asosini xom ashyo va kapital ko‘p talab qiluvchi tarmoqlar: rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari va elektr energetika sanoati ulushi yuqori bo‘lib yillar kesimida yuqorilashib 2023 yilda 70,4 foizni tashkil etib, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida ushbu tarmoqlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichga ikki asosiy omil -

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

¹¹ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

viloyatda yirik sanoat korxonalarining joylashuvi va qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining jadallik bilan rivojlanib borishi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohasida ham o'z navbatida o'sishga erishilsada viloyatdagi sanoat ulushining yuqoriligi fonida foiz ko'rsatkichlari pasdligini ko'rsatmoqda.

Mintaqa sanoatining rivojlanishida katta o'rin tutayotgan G'ozg'on shahridagi qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati hududning iqtisodiyoti diversifikatsiyasiga, infratuzilmaning rivojlanishiga va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga zamin yaratadi. Korxonada yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari ulushini oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini yanada ko'tarish imkoniyatlari shakllanmoqda. Navoiy viloyati iqtisodiyoti sanoat sohasidagi salohiyati bilan nafaqat mintaqaviy, balki milliy darajada ham ahamiyatga ega ekani isbotlanmoqda (2-rasm).



2-rasm. Navoiy viloyati hududida qurilish materiallari konlarining mavjud zaxirasi¹²

Muallif fikricha, ushbu korxonada marmar va granit toshlarini qazib olish, qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlardan iborat klasterni tashkil etish hamda marmar va granit toshlarini chuqur qayta ishlash orqali jahon standartlariga mos eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Taklif etilayotgan klaster yordamida turli xildagi toshlardan yasalgan buyumlar turi ko'paytiriladi. Eng asosiysi, mahalliy aholi ish bilan ta'minlanadi hamda eksportni yo'lga qo'yish orqali milliy brend shakllanadi. Aholi daromadi oshishi bilan inson kapitaliga hamda tadbirkorlikning turli sohalari rivojlanishiga erishiladi.

Navoiy viloyati hududlari kesimida barqaror rivojlanish komponentlari bo'yicha shahar va tumanlari tahlil qilingan. Unga ko'ra, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik

¹²Davlat geologiya va mineral xom-ashyolar qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

sohalarda darajasi yuqori (+++), o'rtacha (++) hamda nisbatan past darajali (+) hududlar ko'rsatilgan (5-jadval).

5-jadval

Navoiy viloyati hududlari bo'yicha barqaror rivojlanish komponentlari darajasi¹³

	Iqtisodiy	Ijtimoiy	Ekologik
Navoiy	+++	++	+
Navoiy sh.	+++	+++	+
Zarafshon sh.	+++	+++	+
G'azg'on sh.	+++	+	+
tumanlar:			
Uchquduq	++	+	+
Karmana	++	++	+
Qiziltepa	++	++	+
Konimex	+	+	+
Navbahor	+	+	++
Nurota	+	+	++
Tomdi	++	+	+
Xatirchi	+	+	++

Mazkur tadqiqot ishida Navoiy viloyatining barqaror rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash, iqtisodiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan strategik rejasini ishlab chiqish maqsadida SWOT tahlili amalga oshirilgan. Tahlilga ko'ra, viloyatning kuchli tomonlari va imkoniyatlari uning zaif tomonlaridan ustun bo'lib, bu uning iqtisodiy salohiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Biroq mintaqaga xavf solayotgan tahdidlar bunday imkoniyatlarga katta ta'sir ko'rsatishi va barqaror rivojlanishga erishishni qiyinlashtirishi mumkin. Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zonalar, xalqaro logistika markazi va zamonaviy infratuzilmaning rivojlanganligi hududning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, suv resurslarining yetishmovchiligi va ekologik vaziyatning yomonlashuvi kabi muammolar mavjud. Viloyatning suv ta'minoti va qayta tiklanadigan energiya sohalorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, turizmni rivojlantirish kabi imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi va yerlarning cho'llanishi kabilar hududning barqarorligiga tahdid soladi (6-jadval).

Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahri aholisining kambag'al qatlami turmush sharoitining yaxshilanishini moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun "Navoiy kon-metallurgiya kombinati", xalqaro moliya institutlari, xorijiy donorlar, mahalliy sub'yektlar ajratgan mablag' va imtiyozli kreditlar asosida qo'llab-quvvatlash hamda hududni kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsadida "Maxsus jamg'arma" tashkil etish muallif tomonidan taklif etilgan.

¹³ Muallif ishlanmasi.

Navoiy viloyatining barqaror rivojlanish daragasi SWOT tahlili ¹⁴

Strengths (Kuchli tomonlar)	Weaknesses (Kuchsiz tomonlar)
• yangi turdagi mineral xomashyo resurslari konlarining ochilishi va zaxiralarining ko'pligi; • viloyatda yirik ishlab chiqarish korxonalarining mavjudligi; • Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zonalar mavjudligi; • Navoiy xalqaro intermodal logistika markazining mavjudligi; • rivojlangan zamonaviy infratuzilma obektlari bilan yaxshi ta'minlanganligi; • aholi o'rtasida inson kapitaliga bo'lgan e'tiborning ortib borishi; • keng hududli Qizilqum cho'lining mavjudligi.	• ishlab chiqarish korxonalarining atmosfera havosini ifloslantirishi; • chuchuk suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanmaganligi; • mavjud mineral xomashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlash jarayonlari katta xarajatlarni talab qilishi; • ba'zi bir mineral xomashyo turlarining respublikaning uzoq hududlaridan qayta ishlashga olib kelinishi; • sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi aloqalarning zaifligi; • mintaqada yog'ingarchilikning kamligi; • ekologik vaziyatning yomonlashishi va aholi o'rtasida turli xil kasalliklarning ortib borishi.
Opportunities (Imkoniyatlar)	Threats (Tahdidlar)
• atmosferaga chiqariladigan ishlab chiqarish chiqindilarini oldini olish; • mintaqada yangi izlab topilgan foydali qazilma kon zaxiralaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish evaziga tog'-kon sanoati xomashyosi ishlab chiqarishini chuqurroq diversifikatsiya qilgan holda tayyor mahsulotga aylantirish imkoniyatlarining mavjudligi; • suv ta'minoti sohasini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati; • yangi texnologiyalar va ilmiy yutuqlardan foydalangan holda suv resurslaridan oqilona foydalanish; • viloyatda ziyorat va ekoturizmning rivojlanishidagi imkoniyatlarining mavjudligi; • qayta tiklanadigan energiya: quyosh va shamol resurslari orqali Navoiy viloyatida yanada ko'p loyihalarni ishlab chiqishda katta imkoniyatlarga ega.	• chuchuk suv resurslari taqchilligining kuchayib borayotganligi; • qo'shni Afg'oniston hududida "Qo'shtepa" kanalining ochilishi; • ba'zi bir mineral xomashyo resurslari zahiralarning keskin qisqarishi va tugashi arafasiga kelib qolganligi; • sanoatda foydalaniladigan suv zaxiralarining kamayib ketishi bois ishlab chiqarish xarajatlarining oshib borishi; • qishloq xo'jaligida suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi sabab yerlarning cho'llanishi va degradatsiyasi kuchayishi tufayli yaroqsiz holda kelib qolishi hamda oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri ortishi; • issiqxona effektida gazlar salmog'ining ortishi.

Mazkur hududlarda hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish, ishsiz va kambag'al aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishda, maxsus

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

